KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

“XAMSA”GA DOIR IKKI TADQIQOT XUSUSIDA

Quvonov Zarif Omonboyevich,
Navoiy davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-pochta: sevnildil@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-0886-259X
DOI: https://doi.org/10.54613/f6t6a716

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 31

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Navoiyshunoslik, jadid adabiyoti, tadqiqot, “Xamsa”, doston, epik asar, talqin, timsol, syujet

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada XX asr boshlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi, “Xamsa”ga doir tadqiqotlarning ilmiy-nazariy ahamiyati xususida mulohazalar yuritilgan. Navoiyshunoslik o‘zining boy tadqiqot an’analari bilan ajralib turadigan, tarixi qadimiy sohadir. Uning ilk bosqichi shoir yashagan davr bilan, ya’ni mumtoz adabiyotshunoslik asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyingi davri XX asrning birinchi choragida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan tasniflanadi. Mumtoz adabiyotni tadqiq etish nihoyatda qiyin kechgan bu davr adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda bugungacha o‘z ilmiy qimmatini yo‘qotmay kelayotgan ishlar amalga oshirilganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, o‘tgan asrning 20 – 30-yillari oralig‘ida mumtoz adabiyot masalalari, ijodkorlarning hayoti va adabiy faoliyatini tadqiq qilish yangi adabiy tanqid va adabiyotshunoslik ilmining maydonga kelishi bilan izohlanadi. Davr adabiyotshunosligining yana bir muhim jihati, bu – milliy an’analar va G‘arb adabiy-estetik qarashlari asosida shakllanida ko‘rinadi.
Maqola doirasida adabiyotshunos O.Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” monografiyasidagi “Xamsa”ga doir tadqiqoti hamda Abdurauf Fitratning “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida” nomli maqolasi tahlil qilingan. Har ikkala olimning xamsachilik an’anasining tarixiy ildizlari, Navoiy epik ijodining o‘ziga xosligi borasidagi fikr-qarashlari, ular tomonidan ilgari surilgan masalalar qiyosan o‘rganildi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 31

KEYWORDS

Navoi studies, Jadid literature, research, “Xamsa”, epic poem, epic work, interpretation, image, plot

ANNOTATION

The article discusses the study of Alisher Navoi’s life and work in the early 20th century, as well as the scientific and theoretical significance of research dedicated to the *Khamsa*. Navoi studies is an ancient and traditional scholarly field. Its initial stage emerged during the poet's lifetime – based on classical literary criticism – while its subsequent phase is characterized by research conducted in the first quarter of the 20th century. In the literary scholarship of this period, during which researching classical literature was extremely difficult, important works were accomplished regarding classical literature – particularly the study of Alisher Navoi’s heritage – that still retain their scientific value today. Especially between the 1920s and 1930s, the exploration of classical literary issues, the lives of creators, and their literary activities coincided with the emergence of a new literary criticism and science of literary studies. Another important aspect of the period’s literary scholarship is that it took shape based on national traditions and Western literary-aesthetic views. Within the scope of the article, the literary scholar O. Sharafiddinov’s monograph “*Alisher Navoiy*” (specifically its research on the *Khamsa*) and Abdurauf Fitrat’s article *On the Poem “Farhad and Shirin”* are subjected to analysis. Both scholars' views on the historical roots of the *Khamsa* tradition and the distinctiveness of Navoi’s epic creativity, along with the issues raised by them, are comparatively examined.

Kirish

Alisher Navoiy ijodiyoti: lirik, epik, ilmiy asarlari yuzasidan o‘z davrida zamondoshlari qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. Xususan, shoirning o‘zi ham asarlarining yaratilishi, ularning badiiyati haqidagi mulohazalari shoir ijodini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ammo bu fikr-qarashlar faxriya xarakteriga ega bo‘lib, shoir ijodiyotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Navoiy ijodini ilmiy-nazariy tadqiq qilishga, asosan XX asr boshlarida kirishildi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi o‘rganish, asarlarini nashr qilish, shoir yubeleylarini o‘tkazish bilan bog‘liq ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu tashabbusni jadid adabiyotshunosligi o‘z qo‘liga oldi.

Adabiyotshunos B.Karimov jadid adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodiga munosabatni tekshirar ekan, shunday yozadi: “XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidlik harakatining faol ziyolilari o‘zbek mumtoz adabiyotiga doir turli masalalariga e’tibor qaratishdi. Xususan, mumtoz adiblar shaxsiyati, ijodi, asarlarining topilishi va ular ijodini maktablarda o‘qitishga ham befarq bo‘lmadilar. Turkiston jadidlari otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bir necha maqolasida Alisher Navoiy nomini tilga oladi. “Tujjor” gazetasining 1907-yil 10 –11-sonlarida bosilgan “Islohi tahsil” maqolasida maktab muallimlari o‘z o‘quvchilariga an’anaviy o‘laroq sharq adabiyoti tarixidagi asarlarni, jumladan, Navoiy merosini o‘qitishlarini ta’kidlaydi.” [1, 3-b.] Olim o‘rinli ta’kidlaganidek, milliy matbuotning yuzaga kelishi, maorif tizimidagi islohotlar millat ulug‘larining hayot yo‘li va ijodini kengroq o‘rganishga imkon berdi. Jadid navoiyshunosligi Fitrat, Cho‘lpon, Vadud Mahmud, Laziz Azizzoda kabi ijodkorlarning Navoiy ijodiyoti

haqidagi maqolalari va shoir hayoti va asarlarini targ‘ib qilishga qaratilgan faoliyati bilan xarakterlanadi. Adabiyotshunos S.To‘laganovaning “Jadidchilik davrida Alisher Navoiy merosining o‘rganilishi” [2, 363–371-b.] maqolasida ham Alisher Navoiy asarlarini nashr qilish, darsliklarga kiritish, shoir yubiley tadbirlarini davomli o‘tkazib borish kabi ulug‘ vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygani manbalar bilan dalillanadi. Jadid davri adabiyotshunosligida Navoiy ijodiga qiziqish, o‘rganish va targ‘ib qilish amaliy vazifaga aylangan. Bu borada ma’rifatparvar ijodkorlar mumtoz adabiyotni davrlashtirish, Navoiy ijodini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungacha o‘z ilmiy qimmatini saqlab kelayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarning yaratilishi ikki muhim jihatga bo‘linadi: birinchidan, jadidchilik harakatining milliy madaniy merosga bo‘lgan e’tibori, va ikkinchidan, rus sharqshunoslarining Sharq mumtoz adabiyotiga yuzasidan amalga oshirilgan ishlari. Davr adabiyotshunosligining yana bir muhim jihati, bu – milliy an’analar va G‘arb adabiy-estetik qarashlari asosida shakllanida ko‘rinadi.

Adabiyotshunos Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” nomli monografiyasi dastlab mutafakkir shoir tavalludining 500 yillik yubeleyi munosabati bilan 1939-yilda bosilib chiqqan.[3, 5-b.] Olim keyinchalik bu asarni mukammallashtirdi: yangi boblar qo‘shdi, shoir hayoti va ijodiga doir qismlarga aniqlik kiritib tahrir qildi. Negaki, birinchi nashrida olimning qo‘lida hali ishonchli tarixiy manbalar bo‘lmagan. Buni dastlabki kitobga so‘zboshi yozgan munaqqid Sotti Husayn shunday izohlaydi: “Bu asar Navoiyning boy hayoti va ijodiyoti haqida mukammal ma’lumotlar beraturg‘on katta ilmiy ishni boshlash yo‘lidagi bir qarashdir. Hali biz qo‘limizdagi boy tarixiy manbalarni to‘la mukammal ishlab chiqolg‘onimiz yo‘q. Bundan boshqa Navoiyning hayoti, o‘zining shaxsiy va mamlakatning siyosiy, madaniy ishlarida tutgan o‘rniga doir mukammal ma’lumot olishga katta yordam qilaturg‘on “Makorim ul-axloq” nomli asar hali qo‘limizg‘a kirgani yo‘q...” [3, 6-b.] Bu asarga vaqtida taniqli ijodkor, o‘zbek va tojik adabiyotining zabardast vakili Sadriddin Ayniy munaqqidga yozgan xatida yuksak baho bergan: “Men Siz tomondan yozilgan Navoiy tarjimai holini diqqat bilan va zavqlanib o‘qib chiqdim. Sizni bu muvaffaqiyat bilan tabrik etishimga ruxsat bering. Bu tarjimai hol bu kungacha Navoiy to‘g‘isida yozilgan tarjimai hollarning eng to‘g‘risi, eng to‘lasi va eng mazmunligi deb da’vo etishga jur’at qila olaman”[4, 12-b.].

Olim Sharafiddinov uzoq izlanishlar samarasi o‘laroq mavjud manbalarni qo‘lga kiritadi va asarni to‘ldirib qayna nashr ettiradi. Asar shunisi bilan e’tiborliki, olim birinchilardan bo‘lib Alisher Navoiy hayoti va ijodini yaxlit monografik tarzda o‘rganishni, lirik va epik asarlarini tahlil va talqin qilishga, Navoiy ijodining o‘ziga xosligi va takrorlanmasligini isbotlashida ko‘rinadi.

Monografiyaning mazmun-mundarijasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning hayoti, bolalik, o‘smirlik, siyosiy-ijtimoiy faoliyati, ijod jarayoni bilan bog‘liq masalalar tadqiqi, shuningdek, “Xamsa” dostonlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. Quyida biz “Xamsa”ga doir olimning ilmiy-nazariy qarashlari, tadqiq usullari hamda talqiniy yondashuviga e’tibor qaratishni lozim topdik.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi rivojida Abdurauf Fitratning xizmatlari muhim ahamiyatga ega. Olimning Sharq mumtoz adabiyoti vakillari hayoti va ijodini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlari asl manbalar bilan ishlash, matn doir ilmiy-nazariy masalalar professional adabiyotshunoslik talablari asosida amalga oshirilaniga guvoh bo‘lamiz. Fitrat Alisher Navoiy ijodi bilan jiddiy shug‘ullangan. Uning “Farhod va Shirin” to‘g‘risidagi ilmiy maqolasi muayyan doston tahliliga bag‘ishlangan dastlabki qadamdir. Unda, xususan, dostonning xalq og‘zaki ijodidagi hamda yozma adabiyotdagi variantlari qiyosan o‘rganilgan. Yosh tadqiqotchi M. Mavlonovaning “Farhod va Shirin”: adabiy matn tarkibi va g‘oyaviy-badiiy talqin” nomli dissertatsiyasida [5] Fitratning mazkur tadqiqoti xususida qimmatli mulohazalar bildirilgan.

“Xamsa” haqidagi kirishda munaqqid Nizomiy Ganjaviy ijodiy merosini keyingi dostonchilik uchun namuna sifatida ko‘rsatadi. U masnaviylar mazmuni, uslubi, qofiyasi va syujet tuzilishiga yuqori baho berib, an’ananing keyingi shoirlar tomonidan davom ettirilishini tushuntiradi. Debocha tarkibi va vaznga oid qoidalarni qayd etish orqali an’ana faqat mavzuning takrori emas, shakliy-kompozitsion me’yorlar tizimi ekanini ta’kidlaydi. [3, 100 –101-b.].

Olim Sharafiddinov o‘rinli qayd etganidek, Navoiyning ijodiy qudrati avvalgi merosni o‘zlashtirish va uni turkiy tilda yaratishidir. Keyin “Sab’ai sayyor” tahlilida bu fikr yanada aniqlashadi: shoir ustodlarini madh etish bilan birga ularning ayrim yechimlariga tanqidiy munosabat bildiradi, syujetni o‘zgartiradi va voqealarni boshqacha asoslaydi [3. 162–163-b.]. Adabiyotshunos “Hayrat ul-abror”ni falsafiy-didaktik doston sifatida tavsiflaydi. Dostonning bunday mazmunga egalini birinchilardan aytgani e’tiborlidir. Munaqqid doston tahlilida uning struktural tuzilishiga e’tibor qaratadi: umumiy muqaddima va asosiy maqolotlarni ajratib, asarning fikriy qurilishini ochishga intiladi. Hamd, munojot, na’t, ustodlar madhi, so‘z ta’rifi, ko‘ngil va hayratga oid bo‘limlarni sanab o‘tish dostonning axloqiy masalalari keng ma’naviy-falsafiy doirada qo‘yilganini ko‘rsatadi [3, 102–104-b.].

Muallif asosiy qismda yigirma maqolot borligini qayd etib, ulardagi adolat, saxiylik, vafo, ilm, qalam, xalqqa foyda, takabburlik va hayotni qadrlash mavzularini sharhlaydi. Lekin tahlilning eng muhim nuqtasi mavzularni sanash emas, maqolot bilan hikoyatning vazifaviy munosabatini tushuntirishdir. Muallifga ko‘ra, abstrakt fikr hikoyat orqali konkret tus oladi; axloqiy tezis personajning qarori va amalida ko‘rinadi [3, 106, 120–122-b.].

Tadqiqotning muhim nazariy nuqtalaridan biri so‘zning ma’no bilan munosabatidir. O.Sharafiddinov Navoiyda “so‘z” tushunchasi she’r va umuman so‘z san’atiga bog‘liqligini maxsus izohlaydi. Bu izoh oddiy leksik tushuntirishdan kengroq ahamiyatga ega: u keyingi fikrlarni til vositasi haqida emas, badiiy ijod haqidagi estetik qarash sifatida o‘qishni belgilaydi [1, 104-b.]. Muallif san’at ta’sirini ichki hayajon, kechinma va yuksak his bilan bog‘laydi. Biroq ta’sir kuchini mazmundan ajratmaydi: badiiy asar katta g‘oyani ifodalashi, ehtiros bilan sug‘orilishi va munosib ifodaga ega bo‘lishi kerak. Shunday qilib, tadqiqotda estetik baholashning uch o‘zaro bog‘liq sharti paydo bo‘ladi: ma’naviy mazmun, hissiy quvvat va badiiy shakl. [3, 105-b.].

Munaqqid tomonidan amalga oshirilgan mazkur tadqiqot Navoiy ijodi va epik merosini ilk marta yaxlit o‘rganganilgani bilan ahamiyatlidir. Unda Navoiy “Xamsa”si jahon adabiyotining nodir namunasi ekanligi, shoirning mavjud an’analarga sodiq qolgan esada, unga yangicha uslub, ruh va mazmun olib kirgani qiyosiy tahlil orqali ochib berilgan. Adabiyotshunos har bir dostonning tahlilida asarning kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi va g‘oyaviy mazumunini nuktadonlik bilan talqin qiladi. Navoiy “Xamsa”sini o‘rganishda O.Sharafiddinovning mazkur tadqiqoti o‘z ilmiy qimmatini haunzgacha saqlab kelmoqda.

XX asr boshlarida milliy adabiyotshunoslik rivojida Abdurauf Fitratning ilmiy-nazariy tadqiqotlari muhim o‘ringa ega. Abdurauf Fitratning “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida” [6, 105 –134-b.] maqolasi “Farhod va Shirin” syujetining Sharq adabiyotidagi genezisi, uning turli adabiy muhitlardagi o‘zgarish omillari, xalq dostonlarining ta’siri, sayyor syujetlar tahlil qilinadi. Folklorning yozma adabiyot bilan o‘zaro bog‘liqlik tomonlari xususidagi fikrlar bayon etiladi. Xususan,

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga xalq ogʻzaki ijodining taʼsiri koʻrsatiladi. Adabiyotshunos U.Joʻraqulov taʼkidicha: “Farhod va Shirin” dostoning xalq orasidagi variantlari, doston qahramonlari bilan bogʻliq geografik hududlarni oʻrganish asnosida adabiyot tarixini oʻrganishning qiyosiy-tipologik metodi ishlab chiqiladi” [7, 77-b.]. Maqolada masala birgina Navoiy dostoni doirasida emas, balki Firdavsiy, Nizomiy, Xusravi Dehlaviy, Navoiy va keyingi oʻzbek ijodkorlari asarlari bilan qiyosiy munosabatda tadqiq etiladi.

Professor A.Joʻraqulovning yozishicha, VII-X asrlar oraligʻida “Xusrav va Shirin” deb nomlangan Eron xalq dostoni hamda Erondagi Shirin qasri yaqinida Besutun togʻiga tarixiy rasmlarni chizgan rassom haqidagi “Farhod – koʻhkan” afsonasi mavjud boʻlgan [6, 132-134-b.[. Mazkur togʻ bilan aloqador rivoyatlar esa Farhodning yakka shaxs obrazidan koʻra koʻproq quruvchi va sanʼatkor sifatida xalq xotirasida saqlanganini koʻrsatadi.

Tadqiqot metologiyasi

Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy ijodi va epik merosini oʻrganishda oʻzbek navoiyshunosligi tarixida chuqur iz qoldirgan ikki yirik olim — adabiyotshunos Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” monografiyasi hamda Abdurauf Fitratning “Farhodu Shirin” dostoni toʻgʻrisida”gi maqolasi oʻzaro qiyosiy-analitik tahlilga tortildi [3; 6]. Tadqiqotning metodologik asosini adabiyotshunoslikning obyektivlik, tarixiylik, tizimlilik va ilmiy izchillik tamoyillari tashkil etadi.

Maqolada qoʻyilgan muammolarni hal etish va belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-metodologik usullardan foydalanildi:

Qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik metod yordamida har ikki munaqqidning Navoiy ijodiy qudrati hamda “Xamsa” dostonlarining oʻziga xosligi (originalligi) borasidagi qarashlari solishtirildi. Xususan, Fitratning “Farhod va Shirin” syujetining Sharq adabiyotidagi genezisini (Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy talqinlari bilan aloqadorlikda) aniqlashda qoʻllagan qiyosiy-tipologik yondashuvi tahlil qilindi [7, 77-b.]. Shuningdek, O.Sharafiddinov va Fitratning Navoiy salaflar anʼanasini shunchaki takrorlamay, unga “tarhi toza” (yangi uslub, ruh va shakl) olib kirgani haqidagi mushtarak ilmiy pozitsiyalari qiyosiy metod vositasida ochib berildi.

Matnshunoslik va germenevtik tahlil usulida Abdurauf Fitratning doston matnlaridagi kotib xatolari, muallif va bosma nusxa oʻrtasidagi farqlar borasidagi matnshunoslik kuzatishlari hamda qahramonlarning nutqiy mavqei (Xusrav va Farhod muloqoti) ustidagi talqinlari germenevtik va tekstologik tahlil metodlari asosida tadqiq etildi [6, 132-b.].

Estetik-funktsional yondashuv asosida O.Sharafiddinov talqinidagi “soʻz” tushunchasining shunchaki leksik birlik emas, balki badiiy ijodning estetik mezoni (maʼnaviy mazmun, hissiy quvvat va badiiy shakl birligi) ekanligi haqidagi nazariy qarashlari estetik-funktsional tahlil obʼekti sifatida baholandi [3, 104-105-b.].

Natijalar

Fitratning tadqiqot usulida tarixiylik va qiyosiylik tamoyillari bir-birini toʻldiradi. U, bir tomondan, “Xusrav va Shirin” syujetining qadimgi manbalarini izlaydi, ikkinchi tomondan esa, har bir shoirning mazkur syujetga qanday yangilik kiritganini aniqlashga intiladi. Shu jihatdan maqolaning asosiy ilmiy ahamiyati syujetning oʻzgarmas qolip emas, balki har bir ijodkor tomonidan qayta ishlanadigan badiiy tizim ekanini koʻrsatishida namoyon boʻladi. Firdavsiyning “Shohnoma”sida ushbu voqeaga ajratilgan qismni tahlil qilib, doston shoirga undan avval shakllangan hikoya sifatida yetib kelgan, degan xulosaga boradi [4, 106-b.]. Fitrat bayonida Firdavsiy variantida Farhod ishtirok etmaydi, Nizomiyda esa u muhim, ammo ikkinchi darajali qahramon boʻlib maydonga chiqadi. Nizomiy dostoni Farhodning oʻlimi bilan yakunlanmay, Xusrav va Shirin munosabatlari atrofida davom etadi. Demak, qahramonning mashhurligi bilan butun asar kompozitsiyasidagi markaziy mavqei bir narsa emas. Fitrat aynan shu farqdan keyingi qiyos uchun foydalanadi.

Fitrat maqolasining markaziy masalasi Navoiyni avvalgi forsiy asarlarning oddiy tarjimoni sifatida tushunishga qarshi dalil keltirishdir. Olim Navoiyning oʻz salaflariga munosabatini ifodalagan baytlarni keltirib, uning “tarhi toza” asar yaratish niyatini sharhlaydi. Bu niyat tayyor mavzuni rad etishni emas, uning ichida yangi badiiy imkoniyat topishni anglatadi. Qizigʻi shundaki, O.Sharafiddinov ham, Fitrat ham ana shu pozitsiyada bir xil: Navoiy dostonlari shunchaki oldingi salaflarni takrorlash emas, balki, oʻziga xos original asar ekanini dalillaydi.

Fitrat Nizomiy va Navoiydagi Xusrav – Farhod muloqotini yonma-yon keltiradi. Bu usul umumiy syujetni qisqacha qayta hikoya qilishdan koʻra aniqroq dalillash imkonini beradi: oʻquvchi savol-javob shakli saqlangan holda maʼno va munosabat qanday oʻzgarishini kuzatadi. Qiyosning asosiy obyekti alohida soʻz oʻxshashligi emas, qahramonlarning nutqiy mavqei va bahsning badiiy vazifasidir.

Munaqqid Navoiy “Xamsa”sining nasriylashtirish maslasiga ham e’tibor qaratadi: “...soʻng zamonlarda Mir Mahmud Ibni Shoh Yunus tomonidan “Nasri xamsai benazir” unvoni bilan nasrga aylantirilgan. Navoiy “Xamsa”sining aynan nasrga aylantirilgani boʻlib, ayricha hech bir ahamiyatli nuqtasi yoʻqdir” [6, 132-b.] Bir maqola doirasida Fitrat dostonning matnshunoslik jihatiga ham e’tibor qaratadi. Mahzun asari nashrida kotib xatolari juda koʻpligini taʼkidlab, shunday matn asosida shoir uslubi haqida ishonchli xulosa chiqarish qiyinligini aytadi. Bu yerda u muallif, kotib va bosma nusxa oʻrtasidagi farqni amalda hisobga oladi.

Muhokama

Oʻtgan asrning boshlaridagi adabiy-madaniy hayotdagi muhim voqelik sifatida Alisher Navoiy tavalludi sanasining 500 yillik yubeleyini oʻtkazish boʻyicha hukumat qarorini joriy etilishi, bu borada ulugʻ shoir asarlarini oʻrganish, nashr qilish ishlarining yoʻlga qoʻyilishini koʻrsatish oʻrinli. Albatta, bu borada rus sharqshunoslari bilan birga oʻzbek shoirva yozuvchilari, adabiyotshunoslarining amalga oshirgan ishlari bugungi navoiyshunoslik ilmining poydeori desak, toʻgʻri boʻladi. Sobiq shoʻro davrida Alisher Navoiyning “Xamsa”si yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar yetakchilik qiladi. Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” nomli monografiyasida dastlab olim xamsachilik anʼanasi haqidagi mulohazalarini bayon etadi va Navoiyning epik ijodi haqida, “Xamsa”dagi dostonlar tahliliga oʻtadi. Xamsachilik anʼanasining shart va talablari, gʻoyaviy-badiiy jihatdan oʻzaro bogʻlangan dostonlar tizimi, shuningdek, dostonlarning struktarasi, janriy-mazmuniy oʻziga xoslik kabi masalalarni tahlil qiladi. Bu tahlil qilinayotgan davr adabiy-estetik qarashlari uchun ham, keyingi navoiyshunoslik ilmi taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega edi.

Abdurauf Fitrat ham “Farhod va Shirin” tahlili misolida, doston syujetining genezisi, folklor va yozma adabiyot munosabatiga doir masalalar tahliliga e’tibor qaratadi. “Farhod va Shirin” tahlilida muallif qahramonning shakllanishini bilim, hunar, jasorat va muhabbatning birligida koʻrsatadi. Farhodning ilmlarni oʻrganishi, ustalar bilan ishlashi va toshtaroshlikni egallashi keyingi faoliyatiga tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Shu sabab qahramonlik faqat gʻayrioddiy kuch yoki sarguzasht bilan belgilanmaydi; u oʻz qobiliyatini boshqalarning ogʻir ishini yengillashtirishga yoʻnaltirishda ochiladi.

Fitrat maqolasining asosiy ilmiy qimmati shundaki, adabiy manbani tarixiy ildizlarini tekshiri, syujetning oʻzgarib borishi, dostonning matniy tadqiqi va xalq variantlarining yuzaga kelishi va boshq. Fitrat keltirgan qiyoslarda Farhodning bosh qahramon qilib olinishi, Xusravning axloqiy vazifasi oʻzgarishi va umumiy epizodlarning yangi kompozitsion munosabatga kirishi

orqali namoyon bo‘ladi. Demak, an’anaviy syujetdan foydalanish mustaqil ijodni istisno qilmaydi; uning qanday qayta tashkil etilgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Fitratda manbashunoslik va poetik tahlil bir-birini to‘ldiradi. U manbalarning mavjudligi bilan cheklanmay, ulardagi qahramon mavqei va nutqini ham tekshiradi. Ayniqsa, Xusrav–Farhod muloqotini taqqoslash manba aloqasini badiiy farqdan ajratish imkonini beradi. Maqolaning ishonchliligi eng avvalo shunday ko‘rinadigan, tekshirilishi mumkin bo‘lgan matniy belgilarga tayangan o‘rinlarda kuchayadi. Shunigdek, Umar Boqiy va Mahzunga oid kuzatishlar bir asarning o‘qilishi, soddalashtirilishi va turli manbalar bilan qo‘shilishi yangi adabiy hodisalar yaratishini ko‘rsatadi. Kotib xatolari haqidagi mulohazalar esa har qanday uslubiy bahoni ishonchli matnga tayantirish kerakligini eslatadi. Shu ma’noda maqola faqat syujet tarixi emas, matnning kitobxonga yetib borish shartlari haqida ham fikr yuritadi.

Fitratning “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida” maqolasi adabiy an’anani harakatdagi jarayon sifatida tushuntirishga intiladi. Uning eng samarali g‘oyasi syujetning o‘zi emas, syujetga berilgan yangi ma’no va qurilish ijodkorning o‘ziga xosligini belgilashidir.

O‘zbek mumtoz adabiyoti uzoq tarixiy bosqichlar, an’analar, yangilanishlarni boshidan kechirgan muazzam ma’naviy boylikdir. Uning poetik olamini to‘laqonli idrok etish uchun tarixiy taraqqiyot jarayonlariga, davrlar ta’siri o‘laroq yuz bergan o‘zgarishlariga, mazmun va shaklida zuhur topgan ichki va tashqi olamiga bugungi globallashuv ko‘zi bilan nazar tashlash talab etiladi [8,11].

Birgina maqola doirasida XX asr boshlari navoiyshunosligining muhim tadqiqotlarini qiyosan o‘rganish, tadqiqotchilarning Navoiy epik ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarida ularning individual tadqiq metodlarining nazariy tomonlari oydinlashadi. Manbaga yondashish, talqin qilish prinsiplaridagi o‘ziga xosliklar ayonlashadi. O.Sharafiddinov tadqiqotida Navoiy dostonlarining syujeti talqiniga kengroq e’tibor qaratish ko‘zga tashlanadi.

Fitrat maqolasining asosiy ilmiy qimmatini uch yo‘nalishdagi tahlillarni o‘z ichiga olganida. Bular: 1) adabiy manbaning genezisi va tarixiy ildizlarini tekshirish; 2) bir syujetning turli mualliflardagi o‘zgarishini qahramonlar tizimi, voqealar tartibi va badiiy funksiyasi orqali dalillash; 3) dostonning keyingi nasriy varianti, matniy mukammalligi, shu bilan birga xalqona talqinlarini adabiy hayotning davomi sifatida kuzatishidir.

Xulosa

Ko‘rib o‘tganimizdek, Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda XX asr boshlari adabiyotshunosligida muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning ilmiy ahamiyati bugungacha o‘z ahamiyatini saqlab qolayotganidir.

XX asr o‘zbek navoiyshunosligi tarixida adabiyotshunos Olim Sharafiddinov va professor Abdurauf Fitratning ilmiy-nazariy merosi sohaning metodologik poydevorini shakllantirishda muhim burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qildi. Ularning Alisher Navoiy ijodi va “Xamsa” dostonlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

Har ikki olim ham Navoiy dostonlarini Sharq adabiyotidagi mavjud an’analarning shunchaki takrori yoki forsiy manbalarning oddiy tarjimasi emas, balki “tarhi toza” tamoyili asosida yaratilgan, milliy ruh va yangi badiiy mazmun bilan sug‘orilgan original asarlar ekanini qiyosiy-analitik metodlar orqali qat’iy isbotlaganlar.

A.Fitrat “Farhod va Shirin” dostonining genezisini tadqiq etish jarayonida xalq og‘zaki ijodi hamda yozma adabiyot aloqadorligini yoritdi. Olim Firdavsiy, Nizomiy va Dehlaviy dostonlari syujet evolyutsiyasini qiyoslash orqali o‘zbek adabiyotshunosligida qiyosiy-tipologik metodning amaliy asosi va tarixiylik tamoyilini muvaffaqiyatli tatbiq qildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O.Sharafiddinov talqinidagi “so‘z” tushunchasi asarning ma’naviy mazmuni, hissiy quvvati va badiiy shakli birligidan iborat estetik mezonni belgilasa, Fitrat yondashuvida matnshunoslik va tekstologik aniqlik (kotib xatolarini hisobga olish) ilmiy xulosalarning ishonchliligi uchun birlamchi shart sifatida maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Карим Б. Навоийнинг отини олтин билан ёзайлик. // https://jadid.uz/navoiyning-otini-oltin-bilan-yozaylik/
2. Тўлаганова С. Жадидчилик даврида Алишер Навоий меросининг ўрганилиши // “Алишер Навоий адабий ва илмий меросини ўрганиш масалалари” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. file:///C:/Users/PC/Downloads/363-371.pdf
3. Шарафиддинов О. Алишер Навоий. Ҳаёти ва ижоди. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти,Тошкент, 1971.–192 б.
4. Шарипов Ж. Мураббий, олим, жангчи / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 5-сон. – Тошкент, 1965. – 128 б.
5. Mavlonova M. “Farhod va Shirin”: adabiy matn tarkibi va g‘oyaviy-badiiy talqin. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2025. –167 b.
6. Фитрат. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Тошкент, Маънавият, 2000. –208 б.
7. Жўрақулов А. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертатция. Тошкент, 1998.–158 б.
8. Ataniyazova M. XX asrning 20-30-yillari adabiyotshunosligida mumtoz adabiyotning o‘rganilishi (Olim Sharafiddinov ijodi misolida) Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2024. –53 b.